

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/31.03.2021.Fil.78.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA

**ODIL YOQUBOV ASARLARIDA INSON RUHIY HOLATI
IFODALANISHINING LISONIY MANZARASI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

UO‘K: 811.512 133: 821.512.133.09-31

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna

Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi..... 3

Эргашева Дилрабо Алланазаровна

Языковая картина психологического состояния человека в творчестве Адила Якубова..... 25

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna

Linguistic picture of the psychological state of a person in the work of Adil Yakubov
..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/31.03.2021.Fil.78.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA

**ODIL YOQUBOV ASARLARIDA INSON RUHIY HOLATI
IFODALANISHINING LISONIY MANZARASI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Fil1492 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tersu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umurqulov Bekpulat
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Bahriddinova Bashorat Madiyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Muhammadjonova Go'zalxon
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Samarqand davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «18» aprel soat 10:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (136 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «02» aprel da tarqatildi.

(2023-yil «02» aprel dagi 20 - raqamli reyestr bayonnomasi)




P. Bakirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor


A. Eshmuminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent


Sh. Maxmaraimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida keyingi yillarda til hodisalarini antropolingvistik, xususan, pragmlingvistik, psixolingvistik, lingvomadaniy nuqtai nazaridan talqin qilishga qiziqish kuchaydi va bu sohada bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Til va inson, ularning bir-biriga ta'siri, tilda inson omilining aks etishi, til vositalarini o'z o'rnida qo'llash masalalari zamonaviy lingvoantropologiyada olam lisoniy manzarasining alohida va markaziy qismi hisoblangan insonning lisoniy qiyofasini tizimli va kompleks tavsiflash vazifasini qo'ymoqda. Binobarin, inson va uning ruhiyati hamda nutq vaziyati bir-birini taqozo etadigan jarayon bo'lib, ruhiy holatni moddiy in'ikos etuvchi til vositalarini pragmlingvistik, psixolingvistik, lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan ishlarning, shuningdek, til va inson omili mushtarakligidan tashkil topgan badiiy matnlarda inson ruhiy holatining ifodasini tekshirishga bag'ishlangan izlanishlarning yetarli emasligini ko'rsatdi.

Dunyo tilshunosligida so'nggi o'n yilliklar oraliq'ida til materiallarini o'rganishning yangicha yondashuvlari, zamonaviy metodlar asosidagi tahlillar, yangi tilshunoslik maktablari paydo bo'ldi. Tilda inson omilining namoyon bo'lish usul va vositalari, so'z va uning matnda ifodalayotgan ma'nolari, uning inson ruhiyatiga ta'sirini o'rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Chunki insonning ichki dunyosi noyob bilim obyekti bo'lib, uning o'ziga xosligi shu olamning bilvosita kuzatishda berilmaganligi bilan izohlanadi. Inson ichki dunyosining tabiiy tildagi ifodasini talqin etish, badiiy matn, xususan, nasriy asar tili va o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish o'zbek tilshunosligida psixolingvistik tahlil borasidagi mavjud qarashlarni boyitadi, ilmiy-nazariy jihatdan asoslaydi.

O'zbek tilshunosligida til tadqiqini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa, o'zbek tilining Davlat tili sifatidagi maqomini oshirishga qaratilgan so'nggi farmon va qarorlar tilshunoslar zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklamoqda. Negaki "Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi"¹. Tilni shaxs bilan bog'liq ravishda tadqiq qilish asnosida tilshunosligimizda psixolingvistika yo'nalishi shakllanmoqda. O'zbek tilida inson ruhiy holatining til vositalari asosida ifodalanishi va uning psixolingvistik xususiyatlarini ko'rsatib berish o'zbek tilshunosligida o'z tadqiqini kutayotgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ – 2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF – 5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF – 6084-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli" mavzusidagi O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi, 2019, 22 oktyabr, №218 (7448)

to‘g‘risida”gi PF – 6097-son Farmonlari; 2019-yil 4-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ – 4479-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 984-son qarori; 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 60-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy-tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika va fan texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika va fan texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida V.V.Vinogradov, V.Ya.Zadornova, A.A.Ligpart kabi tadqiqotchilar² ning lingvopoetik yondashuvdagi; V.N.Teliya, V.V.Vorobev, S.V.Ivanova, V.V.Krasnix, V.A.Maslovalar³ ning lingvomadaniyatshunoslik doirasidagi ishlari ilmiy qimmatga ega. O‘zbek tilshunosligida B.Yo‘ldoshev⁴, S.Karimov⁵, B.Yariyev⁶,

² Виноградов В.В. Избранные труды. О языке художественной прозы. – М., 1980. – С. 360; Shu muallif: Итоги обсуждения вопросов стилистики. – М., 1986. – С. 117-189; Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс. док. филол. наук. – М., 1992. – С. 152; Shu muallif: Слово в художественном тексте / Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. – М.: МАКС Пресс, 2005. – С. 115-125; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое сопоставление: теория и метод. – М., 1994. – С. 276; Shu muallif: Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика: Дисс. док. филол. наук. – М., 1996. – С. 656.

³ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – С. 288; Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: РУДН, 1997. – С. 331; Иванова С.В. Культурологический аспект языковых единиц. – Уфа, 2002. – С. 114; Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. – М.: Гнозис, 2002. – С. 284; Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пос. для студ. вузов. – М.: Академия, 2001. – С. 208.

⁴ Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 1982. – В.5-32; Shu muallif: Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд: СамДУ, 1999; Shu muallif: Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. – Тошкент, 1993.

⁵ Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. док. дисс... автореф. – Тошкент, 1993; Shu muallif: Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994. – С. 72.

⁶ Яриев Б. Язык поэзии Максуда Шейхзаде: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1979. – В.

B.Umurqulov⁷, M.Yo‘ldoshev⁸, R.Normurodov⁹, N.Mahmudov¹⁰, D.Xudoyberganova¹¹, Z.Xolmonova¹², G.Muhammadjonova¹³, B.Abdushukurov¹⁴, F.Usmonov¹⁵, Sh.Toshxo‘jayeva¹⁶, D.Andaniyazova¹⁷, Z.Umurqulov¹⁸ va boshqa olimlarning tadqiqotlari diqqatga sazovor.

O‘zbek adabiyotshunosligida Odil Yoqubov ijodi va asarlarini badiiy jihatdan chuqur tahlil qilib beruvchi ilmiy tadqiqotlar yaratilgan¹⁹. O‘zbek tilshunosligida esa Odil Yoqubov asarlari monografik yo‘sinda maxsus tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, ayrim ishlarda yozuvchi asarlaridan olingan matnlar lingvopoetik va antropotsentrik jihatdan tahlilga olindi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek nutqshunosligi: badiiy nutq tahlili, antropotsentrik nazariya, etnolingvistika, korpus tilshunosligi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Odil Yoqubov asarlarida til vositalarining inson ruhiy holatini ifodalash xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

⁷ Умуркулов Б. Лексические особенности современной узбекской поэтической речи: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983; Shu muallif: Сўз танлаш санъати. – Тошкент, 1985. – В. 30; Shu muallif. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент, 1990; Shu muallif: Бадий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993. – В. 132; Shu muallif: Ўзбек бадий насрининг лингво-услугий шаклланиш асослари: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2020. – В. 271; Shu muallif: Бадий наср жозибаси. – Тошкент, 2021. – В. 300.

⁸ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик тахлили асослари. – Тошкент, 2007. – В. 91; Shu muallif. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2008. – В. 111; Shu muallif: Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009. – В. 126; Shu muallif: Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2009. – В. 314; Shu muallif: Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2019. – В. 256.

⁹ Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – В.

¹⁰ Махмудов Н. Ойбек шеърятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – В. 34-36; Shu muallif: Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – В. 12-17.

¹¹ Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2015. – В. 240; Shu muallif: Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – В. 12.

¹² Холмонова З. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи: Филол. фан. док. дисс... автореф. – Тошкент, 2009. – В. 51.

¹³ Мухаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – В. 25.

¹⁴ Абдушукуров Б. “Қиссаси Рабғузий” лексикаси: Филол. фан. док. дисс... автореф. – Тошкент, 2017. – В. 160.

¹⁵ Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – В. 160.

¹⁶ Тошхўжаева Ш. Ғ. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD) дисс... автореф. – Фарғона, 2017. – В. 56.

¹⁷ Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик бирликларнинг лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD) дисс. – Тошкент, 2017. – В. 140; Shu muallif: Ономастик бирликларнинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент: Турон замин зиё, 2016. – В. 207; Shu muallif: Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик бирликларнинг лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD) дисс. – Тошкент, 2017. – В. 140.

¹⁸ Умуркулов З. Бадий матнда қиёс ва унинг лингвопоэтик қиммати: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – В. 134.

¹⁹ Султонова Н. Одил Ёқубовнинг сўнги мактуби // “Ёшлик”, 2014 йил 5-сон. <http://saviya.uz>; Халмурадов А. Одил Ёқубов романларида психологизм: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1991; Қурбонов Т.Ж. Одил Ёқубовнинг портрет яратиш маҳорати: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1997. – В. 147; Раҳимов З.А. Одил Ёқубовнинг “Кўҳна дунё” романи поэтикаси: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2000; Холмурадов А. Одил Ёқубов романларида психологизм: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1991.

Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holatining psixolingvistik tahlilini amalga oshirish;

Odil Yoqubovning qahramon ruhiy holatini ifodalashida o'xshatish va sifatlashlardan foydalanish mahoratini ochib berish;

yo'zuvchi asarlaridagi ruhiy holat so'zlari va ularning olam obrazini shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlash;

qahramon ruhiy holatining muallif realiyasidagi ifodasini yoritib berish;

qahramonlar nutqiy faoliyatidagi lisoniy verbal va noverbal vositalarning psixolingvistik xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo", "Osiy banda", "Diyonat", "Muqaddas", "Adolat manzili", "Yaxshilik", "Oq qushlar, oppoq qushlar" asarlaridan olingan matnlardan iborat.

Tadqiqotning predmetini Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining psixolingvistik tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, qiyoslash, konseptual, kontekstual tahlil va tasniflash metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holatidagi g'amgin, xursand, notinch, ma'yus, xafa, xushhol, xushnud, xurram, quvnoq, shodmon, shod, xushchaqchaq kabi zohiriy va azob, alam, nafrat, ranj, afsus, araz, sog'inch, hayajon, sevinch kabi botiniy his-tuyg'ular badiiy matnning nazariy psixolingvistik talqini asosida ochib berilgan;

yo'zuvchi asarlarida o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligini o'zida mujassam etuvchi realiya birliklari, xalqning turmush tarzi, milliy dunyoqarashi, qadriyatlari, fe'l-atvori, e'tiqodlarini aks ettirish o'xshatish va sifatlashlar orqali ruhiy holat ifodalanishi esa ot, sifat, fe'l so'z turkumlari yordamida yuzaga chiqishi asoslangan;

tasviriy vositalar, jumladan, o'xshatishlar va sifatlashlarning ifodalanishida o'q tekkan she'rday, otashda qovurilganday, cho'g'ga ko'milgan qumg'onday, moychiroqday horg'in, ukparday yengillashgan kabi xususiy muallif o'xshatishlari aniqlangan;

nutqiy faoliyat jarayonida gap, so'z birikmasi va so'zlarda o'z ifodasini topgan lisoniy verbal va ishoraviy, mimik hamda fonatsion noverbal vositalarning qahramon ruhiy holati (qo'rquv, g'am, nafrat, jahl, alam, achinish, qayg'u, iztirob, shodlik, quvonch, loqaydlik, hayrat, sarosima, xotirjamlik, iztirob) ni ifodalashi badiiy matn asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat.

Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holatining ifodalanishi tahlili, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, matn tilshunosligi uchun ilmiy-nazariy ma'lumot berishi, ushbu fanlar bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi dalillangan.

Olingan ilmiy xulosalarning badiiy asar tili, ijodkor shaxsi, uning til vositalaridan foydalanish mahorati kabi masalalarni o'rganishda amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, badiiy matnlar tahlili asosida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilganligi, badiiy matn tahliliga zamonaviy tadqiq usullarining tadqiq etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, chiqarilgan nazariy xulosalar, o'zbek tilshunosligida bugungi kunda tilni inson omili bilan bog'liq holda o'rganishga qaratilgan tilshunoslikning yangi yo'nalishi – antropotsentrik tilshunoslik tarkibiga kiruvchi psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik va pragmalolingvistikaning yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari badiiy asarning psixolingvistik, lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari tahlilini amalga oshirishda amaliy qo'llanma vazifasini o'taydi, shu bilan birga, oliy ta'limning filologiya yo'nalishlarida matn tilshunosligi, badiiy matnning lingvistik tahlili, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, pragmalolingvistika kabi fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda ilmiy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishini tahlili natijalari asosida:

Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holatidagi g'amgin, xursand, notinch, ma'yus, xafa, xushhol, xushnud, xurram, quvnoq, shodmon, shod, xushchaqchaq kabi zohiriy va azob, alam, nafrat, ranj, afsus, araz, sog'inch, hayajon, sevinch kabi botiniy his-tuyg'ular badiiy matnning nazariy psixolingvistik talqini asosida ochib berishga oid xulosalardan 2019-2021-yillarga mo'ljallangan I-OT-2019-42 raqamli "O'zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe'l-atvori tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug'atini yaratish" nomli innovatsion amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 5-sentabrdagi 04/01/241-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek va ingliz tillarining elektron-poetik lug'atini yaratishda inson qiyofasi va fe'l-atvoriga oid ruhiy holat so'zlari, o'xshatish va sifatlash kabi vositalarning badiiy matnda, xususan, poetik matnda tutgan o'rni aniqlangan va ma'nolari izohi mukammallashtirilgan;

Yozuvchi asarlarida inson ruhiy holatining ifodalanishi olam lisoniy manzarasining lingvokognitiv unsurlari – konsept va geshtalt asosida konseptual tahlilga tortilganligini yoritishga doir ilmiy xulosalardan FA-F1-G003 raqamli "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasaliishi" mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpoq bo'limining 2022-yil 3-apreldagi 07/11/44-son ma'lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq tilida funksional so'z yasaliishiga doir nazariy ma'lumotlarning mukammallashtiruviga erishilgan;

Tasviriy vositalar, jumladan, o'xshatishlar va sifatlashlarning ifodalanishida xususiy muallif o'xshatishlari (o'q tekkan she'rday, otashda qovurilganday, cho'g'ga ko'milgan qumg'onday, moychiroqday horg'in, ukparday yengillashgan) tavsifiy va tasnifiy lingvistik tahlillar orqali ilmiy asoslangan xulosalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Yoshlar" teleradiokanalida efirga uzatilgan adabiy-badiiy, ma'naviy-ma'rifiy dasturlarining senariysini tayyorlashda

foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 28-fevraldagi 14/01/70-son ma’lumotnomasi). Natijada “Hikoya”, “Talabalar vaqti”, “Asliyat”, “Mumtoz so‘z gulshani”, “Tavsiya”, “Do‘stim kitob” nomli teleko‘rsatuv va eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy maqola va tezislar chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan, 145 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, obykti va predmeti, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy tilshunoslikda psixolingvistik tadqiqotlar”** deb nomlangan birinchi bobi uch bo‘limdan tashkil topgan bo‘lib, unda jahon tilshunosligida psixolingvistik tadqiqotlar tahlili, o‘zbek tilshunosligida matnning psixolingvistik talqiniga doir tadqiqotlar sharhi, tilshunoslikda lisoniy shaxs muammosi va uning o‘rganilishi, shuningdek, badiiy matnning psixolingvistik tahlili amalga oshirilgan.

Bobning **“Jahon va o‘zbek tilshunosligida psixolingvistik tadqiqotlar tahlili”** nomli birinchi bo‘limida jahon tilshunos olimlarining matn tahlili va shaxs omili masalasiga oid ishlari, tilning nutqiy voqelanishi muammosida inson omilining birlamchi ekanligi hamda inson nutqiy faoliyatining mahsuli bo‘lmish matnni uni yaratgan shaxs sifatlaridan xoli tarzda o‘rganib bo‘lmasligi kabi qarashlar hamda ulardagi muhokamali holatlar tahlil qilinib, munosabat bildirilgan.

O‘zbek tilshunos olimlarining til va tafakkur, til va shaxs omili, muloqot va til imkoniyatlari munosabatlarini o‘z ichiga olgan, badiiy matnning psixolingvistik tadqiqiga bag‘ishlangan ishlari tahlilga tortilgan. Ushbu tahlillar natijasiga ko‘ra o‘zbek tilshunosligida ruhiy olam va shaxs ruhiy holati, badiiy matnlarda inson ruhiy holatini ifodalovchi til birliklarining qo‘llanishi bilan bog‘liq amaliy masalalarning o‘rganilishi tilshunoslikdagi asosiy muammolardan biri ekanligi, bu tipdagi tadqiqotlar ma‘lum ma‘noda amaliy ahamiyat kasb etishi, shuningdek, ijodkor mahorati, til vositalaridan qanday foydalanishini tahlil qilish orqali aniqlanishi haqida fikr va mulohazalar bildirilgan.

Bobning “**Tilshunoslikda lisoniy shaxs muammosi**” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida jahon va o‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda lisoniy shaxs muammosi va uning tahliliga oid nazariy qarashlar tahlilga tortilgan. Badiiy matn yaratuvchisining lisoniy shaxs tiplarini yaratishdagi o‘rni misollar asosida dalillangan.

Har qanday yozuvchi o‘z asarida lisoniy shaxs tiplarini yaratishda milliylikka tayanib ish ko‘radiki, bu millat qadriyatlarining shakllanganlik darajasini ham namoyon etadi. Badiiy matn o‘z markaziga yozuvchi shaxsini qo‘yadi: bunda matn ijodkorning lisoniy qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi vosita bo‘lib, yozuvchi til birliklari orqali qahramonlarning lisoniy shaxs tipini yaratadi, shuning uchun u asarning boshidan oxirigacha lisoniy shaxs maqomida bo‘ladi. Tabiiyki, qahramonlarning turli lisoniy shaxs tiplarini yuzaga chiqarishida yozuvchining til vositalaridan foydalanish mahorati ishga tushadi. Badiiy matnda qo‘llangan bunday vositalar asar qahramonining yoshi, milliy-madaniy qarashi, millati, voqelikka munosabati hamda nutq egalarining ruhiy holatini ham ifodalaydi:

– *Assalom, momojon. Esonmisiz, omonmisiz, Veteran bobomlar...*
– *Bobongda omon... O‘zing qalaysan, bolajonim! Nabiram eson-omon yuriptimi?*

– *Nevarangiz, Lochinjonigiz – hammasi eson...*
– *Esa... nega yig‘laysan? Omonliqma, bolam?*
– *Kuyovingiz Suyun akamlar, ...*
– *Kuyovimga ne bo‘ldi? – Ovrrip qoldima?*
– *Og‘risa ham mayli edi, momojon... Opketishdi.*
– *... Ne bo‘ldi? Ochig‘ini ayt, bolam?*
– *Ochig‘ini aytsam... yomon! Juda yomon! Tezroq keling, tezroq kelinglar, momojon!*
– *Boramiz, bolam, boramiz. Veteran bobongni-da olding‘a solip opparaman...* (“Adolat manzili”) Bibisora momo hamda qizi Marjonoy suhbatidan) Parchada til egalarining o‘zbekona salomlashish, o‘zaro ahvol so‘rash an‘analari, onaga nisbatan murojaat shaklining “momojon” shaklidagi ifodasi, ota-ona bilan bamaslahat ish ko‘rish kabi milliy mentalitetga xos qadriyatlar ifodalangan. Bunda Bibisora momo nutqidagi: *nega yig‘laysan, omonliqma bolam, kuyovimga ne bo‘ldi, ovrip qoldima, boramiz, bolam, boramiz. Veteran bobongni-da olding‘a solip opparaman* kabi ifodalar qahramonning xavf-xatarni sezish, kuyunish, achinish va suhbatdoshiga tasalli berish kabi ruhiy holatini ifodalovchi mehribon ona lisoniy shaxs tipini yuzaga chiqargan. *Aylanay, Momojon, bir kep kelinglar, biz hammamiz buyoqda onasidan ayrilgan bo‘taday bo‘zlab qoldik, momojon* kabilar esa umr yo‘ldoshining boshiga tushgan musibatdan g‘amga botgan sadoqatli yor, tushkun, chorasizligidan ota-onasiga o‘kingan qiz lisoniy shaxs tipini ifodalab kelgan.

Bobning uchinchi bo‘limi “**Badiiy matnning psixolingvistik talqini**” deb nomlangan. Badiiy matnda til vositalari orqali dunyoni obrazli ifodalash, qahramonlarning eng nozik tuyg‘ulari, turli ruhiy kechinmalarini borliqqa bo‘lgan munosabati bilan birga ko‘rsata bilish – ijodkorning o‘ziga xos lisoniy qobiliyatiga ishora. Ushbu bo‘limda Odil Yoqubovning retsiyent – o‘quvchi ichki nutqi

(fikrlari) ga mos keladigan talqinni moddiy in'ikos etishiga doir quyidagi jihatlar tahlilga tortilgan.

1. Muallif qahramon ruhiy holatini uning nutqi orqali ifodalaydi.

Ma'lumki, qahramon ichki nutqi uning ruhiy holatini ifodalovchi vosita bo'lib, buni Odil Yoqubovning "Diyonat" romanida Normurod Shomurodovning xotini Gulsara vafotidan keyingi voqealarning haqqoniy tasvirida kuzatish mumkin: *Bas! Nima qilasan, xasta yuragingni tilka-pora qiladigan esdaliklar bilan o'zingni egovlab? Endi kimga kerak bu alamli xotiralar? Oshingni oshab, yoshingni yashab bo'lding! Endi qolgan besh kunlik umringni beg'alva-betashvish o'tkazishni o'ylasang-chi, Normurodvoy! Mana, mol-dunyong, kitob-pitoblaring bilan ko'chib kelding. Dunyoga kelib orttirgan eng kata boyliging – shu kitoblar! Salkam o'n ming jild kitob! O'shalarni o'qib, mutolaa qil. Yoshlarga ulash. O'qishsin. Bahramand bo'lishsin. Oxirgi paytlardagi eng ulug' orzung shu edi-ku. Shu ish bilan o'zingni ovuntir, taskin-u tasalli ol. Bu chirkin o'ylar bilan dilingni namozshom qilishdan na foyda, og'ayni?* Ushbu matnda o'z irodasiga qarshi o'ylar, his-tuyg'ular girdobida qolayotgan insonning o'z-o'zini tahlil qilish, hayot mantig'ini tushunish jarayonining yuksak badiiy talqini ifoda topgan.

Yozuvchining "Muqaddas" qissasida Sharifjonning o'smirlarga xos xurramlik, mamnunlik, masrurlik, xushnudlik kabi inson qalbidagi eng go'zal tuyg'ulari uning nutqi orqali beriladi: *Qalbmida yana bahor edi. Ko'nglimdagi boyagi vahima u yoqda tursin, imtihon topshirgani kelganimni ham unutayozgan edim. Shu topda faqat bir narsani – Muqaddasning yaqinligini, goho-goho muloyim qarab qo'yilishlarini, uyalganidan sochlarini o'ynab, jilmayib gapirishlarini sezardim, buning hammasidan boshim aylanardi.*

2. Qahramon ruhiy holati muallif nutqi orqali ifodalanadi: *Mavlono Muhiddin shosha-pisha o'rnidan turib, shahzodaga ko'z qirini tashladi-da, singan tayoqday ikki bukilganicha qotib qoldi. Shahzodani uning ko'zlari hayratga soldi. Mavlono qo'rquvdan katta ochilgan ko'zlari xuddi go'zal nozaninlarning ko'zlariday serkiprik va allaqanday ma'sum edi! ...Mavlono Muhiddinning jovdirab turgan ma'sum ko'zlarida qo'rquv aralash taajjub aks etdi. ("Ulug'bek xazinasini")*

3. Muallif qahramonning jismoniy xatti-harakatlarini tasvirlash orqali uning ruhiy holatini ifodalaydi. Insonning *xafalik, xursandlik, jahllanish, g'azablanish, qattiq qo'rquvga tushish, nafratlanish* kabi holatlarida uning tana a'zolari bevosita harakatga keladi, qo'llari, oyoqlari, tizzalari qaltiraydi yoki ruhiy holatga mos yuzi oqaradi, uyalganida esa qizaradi. Inson tanasida yuz bergan bunday o'zgarishlar qahramon ruhiy holatining lisoniy talqinida qulay vositadir: 1. *Veteran g'azabdan dik-dik sakray boshlagan qo'llarini tizzalariga bosdi. ("Adolat manzili")* (qahramonning g'azablanish holati ifodalangan) 2. *"O'rgamchi" so'zini eshitishi bilan Malikul sharob rangi oqarib, "shilq" etib kursiga o'tirib qoldi. ("Ko'hna dunyo")* Mazkur parchalarda somatik belgilar tasviri *"dik-dik sakray boshlagan qo'llarini tizzalariga bosdi", rangi oqarib, "shilq" etib kursiga o'tirib qoldi* metaforik ifodalari ko'magida yuqori ta'sirchanlik kasb etgan.

4. Muallif qahramonning ruhiy holatini tabiat tasviri orqali ochib beradi: *Qalandar, go'yo hushidan ayrilganday ko'zlarini yumib uzoq yotdi, ko'zlarini*

*ochganida esa musaffo osmon sathida suzib yurgan oppoq bulutlarni ko'rdi, ular bulut emas, ko'kda ohista suzib yurgan oq laylaklarga o'xshardi... Borliq uning hislariday tiniq, osuda bir farog'atga cho'mgan, hamma yoq jim-jit, faqat qayerdadir balandda, laylaksimon oppoq bulutlar ostida, so'fito'rg'aylar betinim vijirlar, bu vijir-vijirda ham faqat bir narsa eshitar edi: orom, orom, orom... Qalandar oftobday iliq bu tuyg'uga bo'ysunib, ko'zlarini qayta yumdi. ("Ulug'bek xazinasi") Muallifning qahramonlarga bergan sifatlarida uning shaxsiy bahosi ham aks etadi. Ya'ni, qahramonlarning dunyoqarashi, o'ziga xos xarakteri, ruhiy holatlari asar g'oyasini yaqqol ochishga xizmat qiladi. Bu jarayonda yozuvchi o'z tuyg'ularini ham qo'shib ifoda etadi. Masalan, "Ulug'bek xazinasi" romanidagi Mavlono Muhiddin: *"qirq besh yoshlar chamasidagi, qosh-ko'zlari qizining qosh-ko'zlariday qop-qora, oq-sariqdan kelgan, nozikkina, bo'ychan bir odam"*, Xurshidabonu: *"...hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rmagan, o'n gulidan bir guli ochilmagan bu nozik qiz"*, Qalandar: *"... sahroyi sodda, haq taolo devday qaddiqomat berib, aql bermagan anqov!"*, Gavharshod begim: *"... bemehr, bag'ri tosh. Ko'hlik bo'lsa ham – chehrasi sovuq, yupqa lablariga tabassum qo'nmaydigan shaddod xotin"* sifatida ta'riflangan. Yozuvchining o'quvchiga matnni qabul qilishda bundayin yengillik yaratishi o'quvchida qahramonlarga munosabatning o'zgarishiga, uning yozuvchi maslagidagi pozitsiyani tanlashiga olib keladi.*

Dissertatsiyaning **"Odil Yoqubov asarlari tilining psixolingvistik talqini"** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida badiiy matnning psixolingvistik tahlili amalga oshirilgan bo'lib, adib asarlarida inson ruhiy holatining lingvokognitiv unsurlar asosida ifodalanishi, o'xshatishlar va sifatlashlarning ruhiy holat ifodasidagi o'rni, ruhiy holat so'zlari va ularning olam obrazini shakllantirishdagi ahamiyati, ruhiy holatning sintaktik qurilmalarda ifodalanishi (o'zga gapli konstruksiyalar) psixolingvistik tahlilga tortilgan.

Bobning birinchi bo'limi **"Inson ruhiy holatining olam lisoniy manzarasining lingvokognitiv unsurlari asosida ifodalanishi"** deb nomlangan. Har qanday til alohida olam manzarasiga ega va tilda aks etgan inson olami o'ziga xos idrok imkoniyatlarini namoyon qiladi²⁰. Inson ruhiy holatining ifodalanishida asosiy lingvokognitiv unsurlardan biri konsept hisoblanadi. Konsept – yozuvchining o'ziga xos individual ongida mavjud ruhiy olami bilan bog'liq holatda shakllanadi, ijodkor mental dunyosidagi olam haqidagi bilimlarini, obrazlar va unga bo'lgan munosabatini ijobiy, salbiy yoki neytral baholashda ishtirok etadi. Odil Yoqubov asarlarida shaxs tafakkuriga xos bo'lgan tahlil qilish amalining namoyon bo'lishi ko'p uchraydi. Ijodkor bu usuldan o'zi tasvirlayotgan obyekt mohiyatini to'laqonli yoritib berishda unumli foydalanadi.

Tadqiqotda, asosan, **achinish, qo'rquv, alam, g'am-anduh, vasvasa, xurramlik** kabi ruhiy holat konseptlari tahlilga tortilib, jumladan, **qo'rquv** (konsepti) ning ifodasi holat fe'llari ko'magida berilgani aniqlandi (1-jadval): *Bobosi har chiqib-kirganida bonuning yuragi uvishib, igna tutgan nozik barmoqlari titrab ketadi; boya qorong'ida to'fonday yopirilib kirgan yasovullar ko'z oldiga*

²⁰ Кавинкина И.Н. Психоллингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. – Гродно: ГрГУ, 2010, – С. 152.

kelib, o'tirgan joyida karaxt bo'lib qoladi. Har safar yasovullarning dag'al ovozlari, nag'al qoqilgan etiklarning betakalluf gursillashini, ayniqsa qo'rquvdan ikki bukilib, titrab-qaqshab qolgan otasining dir-dir titrashini eslasa yodiga shu yil ko'klamda sodir bo'lgan boshqa bir mudhish voqea tushib, yuragi o'ynab ketadi. ("Ulug'bek xazinasini")

Xurshidabonuning ruhiy holati	Mavlono Muhiddinning ruhiy holati
yuragi uvushmoq	qo'rquv
barmoqlar titrashi	dir-dir titramoq
karaxt bo'lmoq	titrab-qaqshamoq
yuragi o'ynamoq	iztirob

1-jadval. "Qo'rquv" konseptining verbal ifodasi

Odil Yoqubov asarlarida qahramonlar ruhiy holati tasvirining turli shakllari, jumladan, lingvistik geshtaltdan foydalanish kuzatiladi.

Ma'lumki, har qanday matn yaratilishida "butundan – bo'lakka" jarayoni aks etadi va lingvistik geshtalt shaxs ruhiy holatini tasvirlashda muhim lingvokognitiv unsur hisoblanadi. Xususan, yozuvchining "Adolat manzili" romanidagi mikromatnlarda dard, alam, iztirob aks etgan jumlar bir umumiy mazmun atrofida birlashadi va qahramonning turli ruhiy holatini yaxlit obrazlarda o'quvchi tasavvurida jonlantiradi: *Veteran har bir orden, har bir medalni qadarkan, ularni olishda ko'rsatgan jangovar ishlari, salkam qirq yil tinchlik zamonida qilgan xizmatlari esiga tushib, goh allaqanday jo'shqin esdaliklardan dili ravshan tortib, goh nimagadir xo'rliqi kelib, o'ksib oldi. Kimdan ham yashiradi? So'ngi yillarda ko'plar, ayniqsa, yoshlar orden, medallarni taqib olgan keksalarni ko'rsa, burunlarini jiyiradigan, oshkora masxara qiladigan bo'lishdi. Agar keksalar do'kon-po'kondan biron narsa olmoqchi bo'lsa, garchi hammayoqqa "invalidlar va Vatan urushi ishtirokchilari navbatsiz olishadi" deb yozib qo'yilgan bo'lsa ham, ularni navbatsiz qo'yishmaydigan, hatto "Vatan urush ishtirokchilari allaqachon u dunyoda yuribti, sen haliyam bu dunyoda ivirsib yuribsanmi", deya haqorat qilish odatini chiqarishgan edi. Shu boisdan Veteran biror do'konda navbat turgan odamlarni ko'rsa, garchi u yerda tekinga oltin ulashilayotgan bo'lsa-da, yoniga yo'lamaydigan bo'ldi. Nachora, davr o'zgardi, Veteranga o'xshab minglab qariyalar manashunaqa shafqatsiz, mehr-muruvvatsiz bir zamonga qolishdi. Ko'rinadiki, real voqelikning badiiy-geshtaltiv talqini urush qahramonlariga bugungi munosabatning haqqoniy tasvirini berishdagi eng ta'sirchan usul hisoblanadi.*

Bobning ikkinchi bo'limi "**O'xshatishlar va sifatlashlar – inson ruhiy holatining ifodachisi**" deb nomlangan. Odil Yoqubov o'ziga xos badiiy uslubga ega ijodkor. Adibning deyarli barcha asarlarida o'xshatishlar va sifatlashlarning eng sara namunalarini kuzatamiz. Tadqiqotda yozuvchi asarlarida qo'llangan inson ruhiy holatini ifodalovchi o'xshatishlar o'xshatish etaloniga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratilgan:

1. Inson ruhiy holatini ifodalashda shaxs nomi bilan bog'liq o'xshatishlar: *Yigit Matlubaning qo'ltig'idan olmoqchi bo'lib qo'lini cho'zdi, Matluba xuddi yosh boladay hurkib, Samig'jonning orqasiga yashirindi. ("Matluba")*

2. Inson ruhiy holatini ifodalashda hayvon nomi bilan bog'liq o'xshatishlar: *Mirzo Ulug'bek to Afrosiyob xarobalariga yetguncha go'yo onasidan ayrilgan bo'taday bo'zlab, orqasiga qaray-qaray bordi.* ("Ulug'bek xazinas")

3. Inson ruhiy holatini ifodalashda tabiat hodisalari bilan bog'liq o'xshatishlar: *Muqaddas bilan xayrlashib orqamga qaytarkanman, mening ko'ngrim ham xuddi yong'irdan keyingi osmondek charaqlab ketgandim.* ("Muqaddas")

4. Inson ruhiy holatini ifodalashda milliy-madaniy realiyalar bilan bog'liq o'xshatishlar: *Veteran, ko'ziga hech narsa ko'rinmay, asfalt yo'lda qoqinib, go'yo cho'g'ga ko'milgan qumg'onday qaynab, xayolan hamon Mansurmeh bilan olishar edi.* ("Adolat manzili")

5. Inson ruhiy holatini ifodalashda o'simlik nomlari bilan bog'liq o'xshatishlar: *Domla Shomuradov bir zum, bir daqiqa Jamol Bo'riboev o'tirgan joyga tikanday qadalib qoldi, so'ng o'zini stulning suyanchig'iga tashlab, ko'zini yumdi.* ("Diyonat")

6. Inson ruhiy holatini ifodalashda uning tana a'zosi bilan bog'liq o'xshatishlar: *So'qir ko'zini qora latta bilan bog'lab olgani uchunmi, yo sog' ko'zi simobday yaltillab turgan iuchunmi, qorining vajohatidan Sarkorning yuragi o'tday kuyib, zirqirab ketdi...* ("Osiy banda")

7. Inson ruhiy holatini ifodalashda maishiy oziq-ovqat nomlari bilan bog'liq o'xshatishlar: *Faqat bir narsa ba'zi-ba'zida tinchini buzib, yuragini tuz sepganday achitar, u ham bo'lsa, yana o'sha eski raqibi Abu Ali edi.* ("Ko'hna dunyo")

Tilda tasviriylikni ta'minlovchi, fikrni obrazli ifodalash asosida badiiy ta'sirchanlikni kuchaytiruvchi, badiiy matnda qahramonlar ruhiy holatini yorqin ifodalovchi vositalardan biri **sifatlashlar**dir.

Sifatlashlar emotsional-ekspressiv bo'yoqdor, obrazlilik darajasi yuqori birliklardir. Odil Yoqubov asarlarida keltirilgan *mudhish o'y, mudhish qo'rquv, ma'yus yuz, ma'yus chehra, tizginsiz iztirob, mas'ud damlar, tizginsiz bir dard, mungli ovoz, o'ychan nigoh, so'lg'in yuz, g'am-anduhga to'la ovoz, sovuq muomala, kinoyali tabassum* kabi sifatlashlar ifodadorlik ko'lami bilan ajralib turadi, shuningdek, mazkur sifatlashlar inson ruhiy holatini, qahramonlar o'y-kechinmalarini tasvirlash vazifasini bajaradi (2-jadval): *Marjonoy zinaga cho'kkanicha unga jimgina tikilib o'tirar, o'tirgan sayin vujudi zirqirab, bir-biridan vahimali o'ylardan yuragi bezillab og'rirdi.* ("Adolat manzili") Odil Yoqubov asarlarida *vahimali o'y* ifodasi *mudhish o'y, mudhish manzara* kabi sinonim sifatlashlar bilan almashinib qo'llaniladi. Ba'zan bitta matnda birdan ortiq sifatlashlar qo'llanilib, unda ikki yoki undan ortiq qahramonning ruhiy kechinmalari yoritilgan bo'lishi mumkin: *U (Marjonoy) bu safar odatdagi so'roq emas, boshqa bir yomon, mash'um gap chiqqanini ich-ichidan sezar, biroq shiddatli qoramtir yuzida tizginsiz iztirob, xayolan birovlar bilan olishayotgan eriga gap qotishga jur'at etmasdi.* ("Adolat manzili")

Sifatlashlar orqali qahramonning turli ruhiy holati ifodalanishi	
<i>mash'um gap</i> Marjonoyning holati	<i>shiddatli qoramtir yuz, tizginsiz iztirob</i> Suyun Burgut (Marjonoyning eri) ning ruhiy holati
noxush xabarni sezish	darg'azablik
ojizlik	notinchlik
jur'at eta olmaslik	azob chekish
xavotirlanish	alam
ruhiy azoblanish	nafrat

2-jadval. Sifatlashlarning ruhiy holat ifodalashdagi o'rni

Ruhiy holat ifodalovchi sifatlashlar asosan **xafalik, xursandlik, notinchlik, bezovtalik, sarosimaga tushish** kabi kuchli ruhiy iztirobning turli ko'rinishlarini ifodalab keladi.

Bobning uchinchi bo'limi "**Ruhiy holat so'zlari va ularning olam obrazini shakllantirishdagi ahamiyati**" deb nomlangan. Ruhiiy holat bilan bog'liq inson emotsiyasi badiiy matnlarda tilning turli sath birliklari vositasida o'z aksini topadi. Jumladan, Odil Yoqubov ruhiy holat ifodalovchi otlar vositasida qahramonlarning ruhiy kechinmalari tasvirini mukammal yaratadi. (1-chizma): *Shaxzodaning ganch niqobni eslatgan yuzi, qaltiroq qo'llari, ayniqsa bejo javdiragan ko'zlari uning (Mirzo Ulug'bek) dilida mehrga o'xshash bir tuyg'u uyg'otgan, faqat qandaydir g'urur, temuriylarga xos bir iftixor gap boshlashga qo'ymas edi.* ("Ulug'bek xazinasi")

Mirzo Ulug'bek —————>> **Otalik mehri**
Podshohlik g'ururi —————>>

1-chizma. Qahramonning ruhiy kechinmalari tasviri

Shu kabi, Odil Yoqubov asarlarida xafalik: *g'amgin, xafa, xomush, ma'yus, giryon, xunibiyron, tushkun, notinch* kabi; xursandlik: *xursand, mamnun, xushhol, xushnud, xurram, quvnoq, baxtiyor, baxtli, shodmon, shod, xushchaqchaq, masrur* kabi; g'azablanish: *g'azabnok, kinli, darg'azab, g'azabli* kabi sifatlar tahlil etilgan. Shuningdek, adib davr ruhi, qahramonlar ruhiyatidagi kechinmalarni ifodalashda ruhiy holat fe'llaridan ham unumli foydalanadi. Masalan, *Otaqo'zi qizining bo'g'ilib-bo'g'ilib yig'laganidan, uning haqsiz xo'rlanganidan azoblandi.* ("Diyonat")

Tadqiqotda shuningdek, *nafratlanmoq, faxrlanmoq, ranjimoq, xafa bo'lmoq, ma'yuslanmoq, shodlanmoq, quvonmoq, xursand bo'lmoq, notinchlanmoq, siqilmoq, afsuslanmoq, xotirjam tortmoq, xo'rsinmoq, seskanmoq, ajablanmoq, alamlanmoq, asabiylashmoq, qo'rqmoq* kabi ruhiy holat fe'llari tahlilga tortilib, shunga mos xulosalar berilgan.

Bobning to'rtinchi bo'limi "**Ruhiy holatning sintaktik qurilmalarda ifodalanishi (o'zga gapli konstruksiyalar)**" deb nomlangan. Inson ruhiy holati

ifodasida o‘zini bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning ham alohida o‘rni bor. Bunday gaplarda badiiy asar qahramonining o‘ylari, ruhiy kechinmalari, g‘am-tashvishlari, mulohazalari, muallif nigohidan o‘tkaziladi. Shuning uchun muallif nutqi bilan qahramon kechinmalari aralash holda namoyon bo‘ladi. Ushbu bo‘limda Odil Yoqubov romanlarida ruhiy holat ifodasiga xizmat qiluvchi ko‘chirma va muallif gapli qurilmalar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy olamining milliy xoslangan belgilari”** deb nomlangan oxirgi bobi uch bo‘limdan iborat. **“Qahramon ruhiy holatining muallif realiyasidagi ifodasi”** deb nomlangan birinchi bo‘limida milliy realiya birliklari va uning badiiy matnda qahramon ruhiy holatini ifodalashi tahlilga tortilgan.

Realiya – bu ma‘lum bir madaniyatga mansub xalqning turmushi, ma‘naviy qarashlari, tarixi, an‘analari, urf-odatlari, san‘ati bilan bog‘liq bo‘lgan real faktlar. Realialar milliy va tarixiy kolorit ifodachisi bo‘lganligi uchun ularni boshqa tillarga tarjima qilish tarjimondan alohida yondashuv va mahorat talab qiladi²¹.

O.Axmanovanning fikriga ko‘ra, realialar – bu mumtoz grammatikada tashqi lingvistika tomonidan o‘rganiladigan turli-tuman omillar; moddiy madaniyat buyumlari²². Ularga xalqning tarixi va madaniyatiga oid birliklar, shu tilda so‘zlovchilarning lisoniy aloqalari kabilarni kiritish mumkin. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda predmetlarni ifoda etuvchi so‘z va iboralar keng ma‘noda realiya deb yuritiladi²³. Milliy realiya: muayyan xalqning hayoti, turmushi, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti uchun xarakterli bo‘lgan predmetlar, hodisalar va obyektlarni nomlovchi, boshqa xalqlar uchun unchalik tushunarli bo‘lmagan, milliy koloritni ifodalovchi so‘zlar yoki so‘z birikmalari; muqobilsiz leksika turlaridan biri²⁴ tarzida talqin qilinadi. Bizningcha, realiya – bu muayyan xalq hayotiga oid madaniy munosabatlar darajasini yoritishga xizmat qiluvchi milliy qadriyatlar, an‘analar, marosim, urf-odatlarni o‘zida aks ettiradigan lingvomadaniyatshunoslikning asosiy o‘rganish obyekti, birligidir. Badiiy matndagi realiya ma‘lum narsa-buyum haqida axborot berish bilan birga shu narsa-buyumning lisoniy ifodasida aks etgan milliy-madaniy semalar, kognitiv belgi va pragmatik ma‘noni ham ifoda etadi.

Odil Yoqubov asarlarida qahramonlar ruhiy holati turli lingvistik birliklar qatorida muallif realiyasi orqali ham beriladi. O‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan *“ko‘k kiyish”* (aza tutish) – eri vafot etgan ayollar aza vaqtida (islomda aza uch kun, lekin eri vafot etgan ayollar uchun to‘rt oy-u o‘n kun) oddiy matodan qora yoki ko‘k libos kiyishadi. O‘zbeklarda azani uzoq tutish – bir yilgacha qora yoki ko‘k kiyim kiyish, to‘y qilmaslik, to‘yga chiqmaslik va hakazo odatlar saqlangan. *“Ulug‘bek xazinasi”* romanida Mirzo Ulug‘bekning volidai muhtaramasi bo‘lgan Gavharshod

²¹ Мусаева Ф. Ўзбек шеваларида миллий реалиялар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. – № 2. – В. 92-96.

²² Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. 4-е изд. – М.: Ком Книга, 2007. – С. 381.

²³ Xolmonova Z. Realialar semantikasining tarjima matnlardagi ifodasi. <http://library.ziyonet.uz>.

²⁴ Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – В. 32.

begim obrazi va uning ruhiy dunyosiga xos xislatlari yuqoridagi “ko‘k kiymoq” milliy realiya orqali yorqin ifodalangan: *Mirzo Ulug‘bek ko‘zini yumib boshini sekin chayqadi. U volidai mehriboniga nisbatan ko‘nglida iliq bir tuyg‘u uyg‘otishga harakat qildi. Lekin ko‘z oldiga uzun bo‘yli, ko‘k ipak ko‘ylak kiyib, boshiga ko‘k ro‘mol o‘ragan, qo‘lidan tasbehi tushmaydigan kalondimog‘ bir xotin keldi... Bobosi Amir Temur Ko‘ragoniy shahodat sharobini ichgandan beri Gavharshod begim bu kiyimini, ko‘k ipak ko‘ylagi bilan ko‘k ro‘molinitashlamas, go‘yo sohibqiron uchun to o‘lguncha motam tutgan, shu bilan dunyo ishlaridan qo‘l yuvib, u dunyo g‘amiga o‘tgan edi.*

Odil Yoqubov qahramonlarning ruhiy holatini ifodalashda maishiy turmush realiyalari: **qoziq** (qoqib kiritishga mo‘ljallangan o‘tkir yog‘och yoki temir), **moychiroq** (sopol yoki metaldan yasalgan idish, qadimda unga zaytun moyi quyib ishlatishgan), **doka** (paxta ipidan juda yupqa va siyrak to‘qilgan gazlama. Odatda oq, ba‘zan ko‘k tusda tikilgan), **bigiz** (kosiblarning nina uchli metall quroli) kabilardan unumli foydalanadi: *Uning ko‘zlarida shunday bir qo‘rquv, shunday bir dahshat bor ediki, men hech qachon o‘rni kelmaydigan yomon bir narsa ro‘y berganini his qildim-u o‘rnimda qoqqan qoziqdek qotib qoldim.* (“Yaxshilik”) Adib qoziqning qattiq jismdan yasalgani va uni yerga qoqilganda tik holatda turishini qahramon ruhiyati (karaxtlik holati) ga ko‘chirgan. Bu kabi milliy madaniy unsurlar yana: *Malikul sharob dag‘al barmoqlari bilan tomog‘ini silab, “qult” etib yutindi, uning tokchadagi moychiroqday horg‘in multiragan ko‘zlari to‘satdan jiqqa yoshga to‘ldi.* (“Ko‘hna dunyo”); *Domla Shomurodov qalt-qalt titrab o‘rnidan turmoqda, uning dag‘al, yalpoq yuzi, qo‘llari dokaday oqarib ketgan edi.* (“Diyonat”); *U hamon titrar, hamon yuragi bigiz suqilgandek bezillab og‘rirdi.* (“Adolat manzili”) kabi misollarda ham uchraydi.

Bobning ikkinchi bo‘limi “**Qahramon nutqiy faoliyati – inson olam obrazining tarkibiy qismi**” deb nomlangan. Lisoniy verbal vositalar – gap, so‘z birikmasi va so‘zlarda o‘z ifodasini topsa, lisoniy noverbal vositalarga ishoraviy, mimik hamda fonatsion vositalar kiradi. Nutqiy faoliyatda lisoniy vositalarning har ikki turida ham inson ruhiy holatini ifoda etuvchi maxsus ko‘rinishlar mavjud. Adib qahramonlarining nutqiy faoliyati jarayonida *qo‘rquv, g‘am, nafrat, jahl, alam, achinish, qayg‘u, iztirob, shodlik, quvonch, loqaydlik, hayrat, sarosima, xotirjamlik, iztirob* kabi holatlarini tilning turli sath birliklari (verbal, noverbal vositalar) da aks ettiradi.

Inson ruhiy holatini ifodalovchi verbal vositalar bilan bir qatorda insonning ichki subyektiv ruhiyatini ifoda etuvchi lisoniy noverbal vositalar ham borki, ular emotsional-ekspressiv vazifani bajarishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ishoraviy yoki mimik harakatlar aloqa-aralashuv chog‘ida, monologik nutqda, hatto sukutda ham insonning turli ruhiy holatlarini ifodalab keladi. Odil Yoqubov asarlarida qahramon ruhiy holati **ishoraviy noverbal vositalar** orqali quyidagicha ifodalangan:

1. **Bosh harakati orqali qahramon ruhiy holatining ifodalanishi: bosh egmoq:** *Normurod ota urishqoq qo‘chqorday o‘jar boshini egib, hamon xo‘mrayib*

